

NAJMIDDIN KUBRO HAMDA KUBROVIYLIKKA OID MANBA VA TADQIQOTLAR

*Ametova Ulbo'sin Kamiljanovna, O'zbekiston Milliy universiteti
Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti "O'zbek adabiyotshunosligi"
kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

SOURCES AND RESEARCH RELATED TO NAJMIDDIN KUBRO AND KUBROVIYYA

*Ametova Ulbosin Kamiljanovna, National University of Uzbekistan
Journalism and Uzbek Philology Associate Professor of the Department
of Uzbek Literary Studies Doctor of Philosophy in
Philological Sciences (PhD)*

ИСТОЧНИКИ И ИССЛЕДОВАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С НАДЖМИДДИНОМ КУБРО И КУБРОВИЙСТВОМ

*Аметова Улбосын Камилъжановна, доцент кафедры узбекского
литературоведения факультета Журналистики и узбекской
филологии Национального университета Узбекистана, доктор
философии по филологическим наукам (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0006-3888-2303>
e-mail:
ametovau84@gmail.com



Annotatsiya: VI-XII asrda Xorazm hududida paydo bo'lib, hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan kubroviylikning tadqiqot manbalari juda keng qamrovli bo'lishi tabiiy hol. Biz ushbu maqolamizda ularni qisqacha yoritib berishga harakat qildik.

Kalit so'z va iboralar: Najmiddin Kubro, kubroviylik, manbalar, "Favoyih", "Najmi Kubro".

Annotation: It is natural that the sources of research on Kubrawiya, which appeared in the territory of Khorezm in the 6th-12th centuries and continues to this day, are very extensive. In this article, we tried to briefly cover them.

Keywords and phrases: Najmiddin Kubro, Kubrawiya, sources, "Fawaiih", "Najmi Kubro".

Аннотация: Источники исследований кубравия, возникшего на территории Хорезма в VI-XII веках и продолжающегося по сей день, очень обширны. Мы попытались кратко осветить их в этой статье.

Ключевые слова и фразы: Наджмиддин Кубро, кубравия, источники, "Фаваих", "Наджми Кубро".

Kirish. Najmiddin Kubro va kubroviylik ta'limotiga bag'ishlangan dastlabki zamonaviy ilmiy izlanishlar 1930-yilda amalga oshirilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilk tadqiqotlar olmon sharqshunosi Frits Mayer nomi bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik fransuz olimi Marjion Mole tomonidan izchil davom ettirilgan. Ushbu tadqiqotchilar, ayniqsa, kubroviy shayxlar qalamiga mansub asarlarni aniqlash, ilmiy tayyorlash va nashrga hozirlash borasida katta sa'y-harakat ko'rsatganlari bilan ajralib turadi.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Eronda Najmiddin Kubro shaxsi va merosi maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganila boshladi

hamda natijada uchta muhim fors tilidagi monografiya chop etildi. Ularning birinchisi Manuchehr Muhsiniy tomonidan 1967-yilda yozilgan "Tahqiq dar ahvol u osori Najmiddin Kubro Uvaysiy" nomli asardir [1:3]. Ikkinchi tadqiqot 2001-yilda Kozim Muhammadiy tomonidan "Najmi Kubro" nomi bilan nashr ettirilgan. Uchinchi asar esa eronlik tadqiqotchi Abdurrofiy Haqiqat qalamiga mansub bo'lib, "Sitorai bo'zo'rgi irfon: Shayx Najmiddin Kubro" deb nomlanadi.

Adabiyotlar tahlili. 2001-yil 29-30-may kunlari Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida Shayx Najmiddin Kubro faoliyati va kubroviylik

tariqatiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. Mazkur anjumanda taqdim etilgan ilmiy ma'ruzalar va materiallar keyinchalik to'rt jildidan iborat to'plam holida nashr qilindi.

1990-yillarda kubroviylik an'anasi doirasida himoya qilingan uchta doktorlik dissertatsiyasi mazkur sohani o'rganishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ulardan birinchisi Jamol J. Elias tomonidan tayyorlangan "The Throne Carrier of God, The Life and Thought of Ala ad-Davla as-Simnânî" nomli tadqiqot bo'lib, unda mashhur kubroviy shayx Alouddavla Simnoniyning hayoti, ijodiy merosi va tasavvufiy qarashlari batafsil tahlil etilgan. Ikkinchi dissertatsiya Surayyo Gull tomonidan yozilgan bo'lib, Sayyid Ali Hamadoni (vaf. 786/1385) hamda uning izdoshlari faoliyatining Kashmir hududidagi rivoji masalasiga bag'ishlangan va "Developement of Kubraviya Sufi Order in Kashmir with Special Reference to Mir Saiyid Ali Hamadani" deb nomlangan. Uchinchi tadqiqot esa Shahzod Bashir qalamiga mansub "Between Mysticism and Messianism: The Life and Thought of Muhammad Nurbaks" asaridir. Unda kubroviylik tariqatining nurbaxshiylik yo'nalishi asoschisi Muhammad Nurbaxshning hayoti, asarlari, mahdiylik bilan bog'liq qarashlari, siyosiy doiralar bilan munosabatlari hamda tasavvufiy tafakkuri keng yoritilgan [2:11].

Tadqiqot metodologiyasi. Avval qayd etilganidek, Najmiddin Kubro shaxsiga oid ilmiy izlanishlarning shakllanishi 1930-yillarga borib taqaladi. Olmon sharqshunosi Fritz Mayer 1937-yilda Istanbulda Shayx Kubro hamda uning shogirdi Najmiddin Doya qalamiga mansub asarlar ustida tadqiqot olib borib, mazkur izlanishlar natijasini maqola ko'rinishida e'lon qilgan. Oradan yigirma yil o'tgach, aynan shu olim "Favoyihul jamol" asarining arabcha matnini ilmiy-tanqidiy usulda nashr ettiradi. Mayer ushbu kitobning kirish qismida shayx hayotiga oid muhim jihatlarni yoritib, "Favoyih" asarining tasavvufiy mazmunini tahlil qiladi.

Tahlillar va natijalar. Keyingi davrda Eronda Najmiddin Kubroga bag'ishlab uchta alohida kitob nashr etilgani yuqorida ta'kidlab o'tilgan edi. Ulardan birinchisi 1967-yilda Tehron shahrida Manuchehr Muhsiniy tomonidan yozilgan "Tahqiq dar ahvol u osori Najmiddin Kubro Uvaysiy" nomli asardir. Ushbu kitobda Najmiddin Kubro, uning asarlari va shogirdlari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa-da, shayxning tasavvufiy qarashlari yetarli darajada tahlil qilinmagan. Shuningdek, Najmiddin Kubroning pirlaridan biri bo'lgan

Ruzbihon Kabir al-Misriy (vaf. 584/1188) Ruzbihon Baqliy ash-Sheroziy (vaf. 606/1209) bilan chalkashtirib yuborilgan hamda Shayx Kubroning Uvaysiy silsilaga mansubligini isbotlashga urinish kuzatiladi. Bundan tashqari, asarda Najmiddin Kubro xalifalarining soni va ularning shaxsiy fazilatlariga doir bir qator noto'g'ri ma'lumotlar uchraydi.

Tadqiqotda murojaat etilishi zarur bo'lgan ayrim manbalar e'tibordan chetda qolgan, ayrim ma'lumotlarning manbalari esa aniq ko'rsatilmagan. Ba'zi manoqiblar tarixiy haqiqatga mos yoki nomosligi tekshirilmasdan, o'quvchiga ishonchli dalil sifatida taqdim etilgan.

2007-yilda Tehronda chop etilgan Abdurrofiy Haqiqatning "Setorai bo'zo'rgi irfon: Shayx Najmiddin Kubro" nomli asarida ham yuqorida qayd etilgan kamchiliklarning ayrimlari saqlanib qolgan. Muallif Najmiddin Kubroning hayoti, asarlari, tasavvufiy qarashlari va shogirdlari masalasiga nisbatan qisqacha to'xtalib, asosan mumtoz manbalarda Shayx Kubro haqida berilgan ma'lumotlarni jamlash bilan cheklanadi. Shu bilan birga, u "Usulul ashara", "Risola ilal xoim", "Odobus sufiyya", "Risolatus soiril xoiril vojid va minxojus solikin" kabi asarlarni bir joyga to'plab, yagona kitob holida qayta nashr ettiradi. Mazkur ishni Najmiddin Kubroning to'liq bo'lmagan kulliyoti sifatida baholash mumkin.

Turkiyada mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan dastlabki va hozircha yagona ilmiy ish Mustafo Qora nomi bilan bog'liq. U Shayx Kubroning "Usulul ashara", "Risola ilal xoim" hamda "Favoyihul jamol" nomli uch risolasini turk tiliga tarjima qilib, kitobning muqaddima qismida muallifning hayoti va ijodiga doir qisqacha ma'lumotni keltiradi. Mustafo Qoraning o'zi ta'kidlaganidek, mazkur ish faqatgina dastlabki qadam sifatida baholanadi. Ushbu kitob nashr etilganiga o'ttiz yilga yaqin vaqt o'tgan bo'lsa-da, mazkur yo'nalishni izchil davom ettiruvchi tadqiqotlar hozirga qadar amalga oshirilmagan. Shu bois ushbu tadqiqotga murojaat etilishining dastlabki sababi aynan mana shu holat bilan izohlanadi.

Yurtimizda ham, xorijda ham Najmiddin Kubro va uning shogirdlarini birgalikda o'rganadigan, ularning hayot yo'lini tizimli ravishda tadqiq etadigan hamda tariqatning dastlabki shakllanish bosqichini tahlil qiladigan doktorlik dissertatsiyasi darajasidagi ish hozircha mavjud emas. Har qanday tariqat, maktab yoki mazhab singari ijtimoiy-diniy harakatlarga kim tomonidan, qanday sharoitda asos solingani va ular qaysi

g'oyalarga tayanganini aniqlamasdan turib, ayrim masalalarni to'liq va mukammal izohlash qiyin kechadi. Zero, tasavvufiy harakat yoki tariqatning asosiy xususiyatlari, avvalo, uning asoschisi va eng yaqin izdoshlarining faoliyati orqali shakllanadi. Shuningdek, tariqat barpo etilgan "usul" ham aynan shu shaxslar tomonidan belgilab beriladi.

Vaqt o'tishi bilan tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga munosabat turlicha bo'lishi tabiiy. Shu sababli diniy va ijtimoiy harakatlar, jumladan, tariqatlar o'zining dastlabki tamoyillaridan chekinib, yangi va ayrim hollarda mutlaqo o'zgacha yo'nalish kasb etishi mumkin. Xususan, ham sunniy, ham shialik muhitida qabul qilingan kubroviylik tariqatida ham ana shunday jarayonlarni kuzatish mumkin.

Qayd etilishi zarur bo'lgan ikkinchi sabab shundan iboratki, manbalarning kamligi yoki mavjud manbalarning asosan fors tilida bo'lgani tufayli mazkur yo'nalish kutilgan darajada rivojlanmagan. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad esa kundan kunga shakllanib borayotgan turk tasavvuf tarixi tadqiqotlariga o'zimizning kamtarona hissamizni qo'shishdan iboratdir. Turk xalqlarining islomni qabul qilishi hamda ularda diniy qarashlarning shakllanish jarayonida tasavvufning tutgan o'rni yassaviylik va naqshbandiylik tariqatlari misolida doimiy ravishda ta'kidlab kelinadi. Albatta, mazkur ikki tariqatning bu boradagi xizmatlari e'tirofga loyiq. Biroq ular qadar keng tarqalmagan va mashhur bo'lmagan bo'lsa-da, O'rta Osiyoda vujudga kelgan kubroviylik tariqatini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Chunki kubroviylik ham tarqalgan hududlarida xalqning diniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [3:176].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadqiqotimiz kubroviylik tariqatining mufassal tarixini to'liq qamrab olmaydi. Xorazmshohlar davlati (1097–1231) hududida Najmiddin Kubro rahnamoligida shakllangan va bugungi kunga qadar, kam bo'lsa-da, o'z faoliyatini davom ettirib kelayotgan kubroviylik maktabiga mansub sufiylar qariyb sakkiz asr davomida islom olamiga diniy, ilmiy, adabiy, fikriy, siyosiy va ayniqsa tasavvufiy jihatdan muhim hissa qo'shib kelmoqdalar. Keng tarixiy davrni o'z ichiga olgan ushbu jarayonni tariqat piri va uning xalifalari faoliyati asosida, jumladan, Alouddavla Simnoniy va ruqniyya, Sayyid Ali Hamadoniy va hamadoniylik, Muhammad Nurbaxsh va nurbaxshiylik, Abdulloh Barzishobodiy va barziobodiylik/zahabiylik kabi

yo'nalishlar doirasida alohida davrlarga bo'lib tadqiq etish zarurati mavjud. Zero, ushbu shaxslar va davrlar o'rtasida tarixiy hamda jo'g'rofiy tafovutlar bilan bir qatorda, jiddiy fikriy farqlar ham kuzatiladi. Kubroviylik tariqatining VII/XIII asrdagi holati bilan IX/XV asr oxirlaridagi holati va ijtimoiy asoslari bir-biriga mos kelmaydi. Simnoniy, Hamadoniy va Nurbaxshga oid ilmiy tadqiqotlarda ana shu o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa. So'zimiz nihoyasida shuni qayd etish lozimki, kitobni tayyorlash jarayonida kubroviylik adabiyotiga daxldor bo'lgan barcha mavjud manbalardan imkon qadar foydalanishga, Najmiddin Kubro hamda boshqa mualliflarning qo'lyozma yoki chop etilgan asarlarini aniqlashga harakat qildik. Tadqiqot mavzusi va davriga oid ma'lumotlar tarixiy hamda tasavvufiy materiallar asosida qiyosiy tahlil qilinib, tanqidiy yondashuv asosida ko'rib chiqildi. Bu jarayonda diniy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar doimo e'tiborda tutildi. Tadqiq etilayotgan shaxsni o'z davri va mavjud sharoitlar nuqtai nazaridan, shuningdek, amalga oshirgan faoliyatiga tayangan holda xolis baholashga intilindik.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhsiniy. Tahqiq dar ahvol u osori Najmiddin Kubro uvaysiy. Inshiroti kutubi Eron, Tehron, 1967.
2. Bashir. Between Mysticism and Messianism: The Life and Thought of Muhammad Nurbaks (chop etilmagan doktorlik dissertatsiyasi). Yel universiteti, 1997.
3. Malikof. Uxlar edik, ogoh etdilar. Tarj. Turon Alptekin. Jem nashriyoti, Istanbul, 1993. B. 176.
4. Muhammadiy. Najmi Kubro. Intishoroti tarhi nov, Tehron, 1380. Muhammadiy keyinchalik ushbu kitobni qisqartirilgan holda qayta nashr ettirgan. Qarang: Muhammadiy, Najmiddin Kubro: Piri valiytarosh. Intishoroti Najmiddin Kubro, Tehron, 1386.
5. Haqiqat, Sitorai bozorgi irfon: Shayx Najmiddin Kubro. Intishoroti Bahjat, Tehron, 1385.
6. Elias. The Throne Carrier of God: The Life and Thought of Ala ad-Davla as-Simnânî (chop etilmagan doktorlik dissertatsiyasi). Yel universiteti, 1991.
7. Bashir. Between Mysticism and Messianism: The Life and Thought of Muhammad Nurbaks (chop etilmagan doktorlik dissertatsiyasi). Yel universiteti, 1997.